

## NEMISCHA MAQOLLARNING O'ZBEKCHA TARJIMASI

*Qo'qon davlat pedagogika Instituti fakultetlararo  
chet tili kafedrasi o'qituvchisi*

***Eshonqulova Mo'tabarhon Tajiboevna***

***Tel: +998990863908***

***E.Mail: [eshonqulovamotabar7@gmail.com](mailto:eshonqulovamotabar7@gmail.com)***

### **Anatatsiya**

Ushbu maqolada xalq o'zaki ijodining bir qismi bolgan, maqol va matallarning o'zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari to'g'risida mushohada yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maqol, frzeologiya, idioma, urf-odat,xalq og'yaki ijodi, tarjima,tarjima variantlari, muqobillik, qayta yaratish.

Har bir millatning necha yillardan beri og'izdan – og'izga o'tib kelayotga turg'un iboralari, jumladan maqol va matallari bor. Shu jumladan nemis tili ham maqol va matallarga boy. Germanistika tarixida nemis frazeologizmlari, idiomalari va maqollari leksikografik jihatdan atroflicha o'rganilgan va maxsus izohli lug'atlarda jamlangan.

Har bir millatning halq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan maqollar uzoq tarixga ega bo'lib, davrlar o'tishi bilan sayqallashib, rivojlanib boradi. Ular har bir millatning o'ziga xos hayot tarzini, urf-odatlarini, orzu-umidlarini, turmush muammolarini o'zida aks ettiradi. Har bir tilda mavjud bo'lgan maqollar, shu tilda so'zlashuvchi millatning qadimiyligidan, donishmandligidan, ulkan hayotiy tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi.

Maqol kundalik hayotda, kishilarning muomala jarayonida paydo bo'ladi. G. Salomov aytganidek, maqol ishlatmagan birorta xalq bo'lmagani kabi, maqol ijod qilmagan bironta til yo'qdir. "Dunyoda tilsiz xalq bo'lmagani kabi, maqolsiz til yo'qdir" deb yozadi tatar adibi Noqay Esonbat. (1)Maqollarning paydo bo'lishi nafaqat oddiy xalq, balki shu xalq ichida yetishib chiqqan faylasuflar, olimlar, yozuvchi va shoirlar ham muhim ro'l o'ynaydi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joyizki, turli xil tillarda so'zlashuvchi xalqlarning ma'no jihatidan bir-biriga mos keluvchi maqollari ham mavjud. Ularning mazmunida asosan yaxshilik va yomonlik, rahmdilik va johillik, haqiqat va yolg'on kabi hayotiy voqeliklar ifodalanadi. Shuning uchun ham maqollarni insonlar turmush tarzining haqiqati va ko'zgusi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Izlanishlar jarayoni shuni ko'rsatadiki, nemis tili maqollarga boy bo'lib, ular turli katta kichik maqollar lug'atida (Sprichwörterlexikon) da jamlangan. Eng katta bir tilli lug'atlar L. Ryorix va T. Tomasek lar qalamiga mansub bo'lib, u o'z ichiga 60000

nemis tilidagi maqol va matallarni oladi. Bizga ma'lumki, frazeologizimlarning alohida turi bo'lgan maqol va matallar tarjima jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Odatda ular gap strukturasi kabi shakllanadi hamda hikmatomuz fikrni ifodalaydi. Bu o'z navbatida tarjimondan yuksak mahorat talab qiladi. Badiy adabiyotni, xalq og'zaki ijodini maqollarsiz tasavur qilish qiyin. Nemis tilidagi ko'p maqollar o'zbek tiliga tarjima qilinganda ular so'zma-so'z va ma'nosiga qarab tarjima qilinadi, lekin ularning muqobilini topish oson emas. Nemis tilidagi juda ko'p maqollarni o'zbek tilida bir yoki bir nechta muqobilini topish mumkin. Bunu quydagi misollar yordamida ko'rib chiqamiz:

1. Man muss das Eisen schmieden, solange es heiß ist!  
Temirni qizig'da bos.
2. Was du heute kannst besorgen, das verschiebe nicht auf morgen  
Bugungi ishni ertaga qo'yma.  
Qolgan ishga qor yog'ar.
3. Wer einem anderen eine Grube gräbt, fällt selbst hinein!  
Kim birovga choh qazisa, o'zi tushadi.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Yuqorida aytilganidek, nemis tilidagi ko'pchilik maqollarni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish mumkin, biroq o'zbek tilidagi ularning muqobillari topiladi.

Masalan:

4. Es ist nicht alle Tage Sonntag!  
Hamma kunlar ham yakshanba emas.

Ammo tilimizda bu maqolning muqobili bor:

Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'.

5. Wer viel redet, erfährt wenig!  
Kim ko'p gapirsa ozi biladi.
6. Freunde sind über Silber und Gold!  
Do'stlar oltin va kumushdan qimmat.
7. Aller Anfang ist schwer!  
Hamma ishning boshlanishi qiyin.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, maqollarni o'rganish orqali o'sha xalqning urf-odati, madaniyati, an'analari bilan tanishish imkoni bo'ladi. Tadqiq etilayotgan mavzuni yoritish xalqlar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hamkorlikni mustahkamlanishiga turtki bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Th. Thomasek. Sprichwörterlexikon. Münster, 2000 yil
2. L. Rörich. Das Sprichwörterlexikon. Freiburg 2001. 2 Band.
3. Salomov. G'. "Til va tarjima". O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Fan nashriyoti. Toshkent. 1966 yil.

4. “Tarjima muammolari”. O’zbekiston FA Adabiyot instituti.
5. “Til, tarjima va adabiyot kengliklari”. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent 2007 yil.